



## MEDIA OLAMIDA LISONIY KOMMUNIKATSIYANING MAZMUN MOHIYATI

*Teshabayeva D.M.*

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, filologiya  
fanlari doktori, professor*

*Ababakirova M.Sh.*

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi*

**Tayanch soʻzlar:** axborot, lingvistika, til va nutq, media tili va uslubi, kommunikatsiya, meʼyor.

**Ключевые слова:** информация, лингвистика, язык и речь, язык и стиль СМИ, коммуникация, норма.

**Key words:** information, linguistics, language and speech, media language and style, communication, norm.

Kirish. Maʼlumki, har qanday turdagi axborotning til orqali ifodalanishida ularning moddiylashuv usuli va shakllari muhim ahamiyat kasb etadi. Lisoniy kommunikatsiya, yaʼni axborot almashinuvi har doim muayyan modellar (matnlar) asosida oʻziga xos lisoniy shakllarni yaratishni taqazo etadi. Ular oʻz navbatida, ishtirokchi – hamkorlar ongida xos ravishda oʻz aksini topadi. Muloqot dinamikasi ikki qutb orasida yuzaga keluvchi boʻladi:

1) yaratilayotgan til birliklarini “oʻxshash tarzda anglash”ga imkon beruvchi meʼyor;

2) bunday bunyodkorlik jarayonidagi tanlash erkinligi zaruratlarini taqazo qiladi.

adabiyotlar tahlili va metodlar. Darhaqiqat, “Oʻz imkoniyatlarining cheklanganligini anglagan inson haqiqat doimo oʻzidan tashqarida ekanligini tan olishga majbur boʻladi ... boshqalar bilan birga muntazam qudratli vositalardan biri hisoblanadi”.

“Odamlar bir-birini suhbatdoshlariga predmetlar belgisini yetkazishgani uchun emas va hatto bir-biriga oʻxshash tushunchani aniq va toʻliq qayta yaratishga taraddudlanganliklari uchun ham emas, balki, ular bir-biriga hissiy



tasavvurlar zanjiridagi biror halqa va ichki tushunchalarning ilk ko‘rinishlaridan birortasini o‘zaro hamjihatlik bilan ishga solishgani uchun tushunadilar, chunki har bir kishi ongida shunga muvofiq, biroq aynan o‘xshash bo‘lmagan mazmun-ma’no yarq etib paydo bo‘ladi” .

Vilhelm fon Humboldt «dunyoning lisoniy manzarasi» deganda dunyoni konkret til orqali dinamik, to‘xtovsiz o‘zlashtirish jarayonini tushunadi. Nemis olimining fikriga ko‘ra, inson hayotidagi «til orqali ta’riflangan» sharoitlar insonning o‘ziga yuklatilgan madaniy-tarixiy burchlari bilan bog‘liq vazifalarni yechish darajasiga olib chiqishi kerak .

Insonlararo muloqotning tugal maqsadi, Humboldt fikricha, odamlardagi ichki kuchlarni erkin rivojlantirishdan iborat. Bunday odamlar o‘z yashash doiralarni cheksiz kengaytira oladilar .

Lisoniy jamoa (til jamoasi)ning ijtimoiy tabiati shundan iboratki, u, bir tomondan, muvofiqlashtirilgan lisoniy muloqot uchun shart-sharoitlar yaratib, har bir a’zosini borliqni til orqali o‘rganishdek umumiy va yagona jarayonga jalb etsa, ikkinchi tomondan, ushbu jamoaning har bir a’zosiga majburiy bo‘lgan kommunikatsiya jarayonining “o‘yin qoidalariga bo‘ysunishini” taqazo etadi.

Vilhelm fon Humboldtning ushbu so‘zlarida zamonaviy lisoniy kommunikatsiyaning mohiyatini ochib beruvchi asosiy mulohazalar o‘z aksini topgan. Bunda muvofiqlashtirilganlik muloqot jarayoni uchun zaruriy shart-sharoit sifatida har bir ishtirokchining individual erkinligi bilan chambarchas bog‘liqligi muhim ahamiyatga ega.

V. Humboldt tomonidan bir yarim asr avval aytilgan bu fikrlar hozirgi payt uchun ham o‘ta dolzarb va ahamiyatli. Muloqot chindan ham bilishning zaruriy omili bo‘lib, kognitiv ibtidodan kommunikativ ibtidoni ajratib bo‘lmaydi.

O‘zaro faoliyat jarayonida odamlarning muloqot qilish imkoniyati va zarurati ong asosini tashkil etuvchi avtokommunikatsiya o‘z-o‘zi bilan ichki dialogning shakllanishiga olib keladi. M.M. Baxtinning fikriga ko‘ra, “ong boshlangan joyda dialog boshlanadi”. Bu narsa fan taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ijodiy ongni tushunishda alohida ahamiyatga ega.

Kishilik taraqqiyoti jarayonida nutqiy muloqotning tabiiy (sun’iylardan farqli ravishda) verbal tili muhim ahamiyatga molik.

Til, dastavval, muayyan hissiyotlar natijasida paydo bo‘lgan to‘g‘ri harakatni bajarishga undaydi. Avstriyalik faylasuf L. V. Vitten-shteynning fikricha, bunday xatti-harakat uchun muayyan tilda gaplashuvchilarda mana shu hissiyotga nisbatan umumiy ta’sir hosil bo‘lishi lozim. Til jamiyatning tajribalarini aks ettiruvchi so‘zlar orqali insonga dunyoni konvensional (kelishilgan, hamma uchun umumiy) idrok etish imkoniyatini beradi. So‘zning belgi sifatidagi

vositali vazifasi aslida shundan iborat. Tilda qayd etilgan va sistemalashgan ajdodlarimiz tajribasi insonning uni o‘rab turgan dunyo haqidagi tasavvurlarini shakllantiradi.

Ma'lumki, borliqni qismlarga ajratish har bir tilda turlicha amalga oshiriladi, chunki fikrning asosiyisini o‘zining takrorlanmas milliy o‘ziga xosliklariga ega bo‘lgan til tashkil etadi.

Natijalar va muhokama. Til ijtimoiy individ sifatidagi insonning uzoq muddatli belgi-tushunchalardan hosil bo‘lgan xotirasidir. U yangi bilimlarni yodda saqlash va yig‘ilgan ijtimoiy ko‘nikmalarni muloqot chog‘ida boshqalar bilan o‘rtoqlashish uchun zarur.

Pragmatik nuqtai nazardan til inson faoliyatini amalga oshirish quroli sifatida o‘rganiladi. Muayyan bir axborotni uzatish vositasi bo‘lgani holda til muloqot chog‘idagi kommunikantlarga ta’sir o‘tkazadi. Bunda til inson faoliyatida uning xatti-harakatlarini muayyan darajada tartibga soluvchi belgili vositalar sistemasi sifatida qaraladi.

Axborotning pragmatik xususiyati uning qimmati bilan belgilanadi. Har qanday axborotning qimmati, ya’ni uning pragmatik darajasi axborotning qo‘yilgan maqsadni qanchalik amalga oshira olgani bilan bog‘liq. Chunki muloqot aniq kommunikativ maqsad (intensiya) bilan bevosita bog‘liq. Bu – mana shunday talablarga javob beruvchi til vositalarini tanlashda maxsus strategiyani talab etadi.

OAV tilining maqomi ikki omilga, ya’ni biz til istilohini qaysi ma’noda tushunishimiz va OAV tili milliy tilning funksional turlari orasida qanday o‘rin egallab turganligiga bog‘liq bo‘ladi.

Hozirda OAV tili milliy tilning barcha funksional turlari orasida hukmron o‘rinni egalladiki, unda barcha funksional uslublarning resurslari mujassamlashgan. Boshqacha qilib aytganda, OAV tili bugungi kunda, buni xohlaymizmi, yo‘qmi, milliy tilning jamlama obrazidan iboratdir.

Til orqali muloqot qilish muayyan modellar asosida o‘ziga xos til haqidagi ma'lumotni talab qiladi va ular hamsuhbatlar ongida o‘zgacha ma’no kasb etishi mumkin.

Kommunikatsiya ta’sirchanligini ta’minlash va bilimlarni qayta tahlil qilish vazifasini bajarish uchun til belgilarini bilish jarayonida ular evristik (ijodiy) ahamiyat kasb etishi lozim. Ya’ni bilim shakli mazmunga ega shakl sifatida boshqa mazmundor ob’ekt bilan aloqaga kirishib, o‘z qonunlariga ko‘ra rivojlanish va taraqqiy etish jarayonida oldin mavjud bo‘lgan belgilardan o‘zib ketish xususiyatiga ega.



Bugungi kunda OAV bilim tarqatuvchi sifatida tushuniladi. OAV deganda faqat texnik vositalar yoki axborot uzatish kanallari emas, balki axborot tarqatish jarayonida ishtirok etuvchi ijtimoiy tashkilot va insonlar ham nazarda tutiladi. Shuni ta'kidlash joizki, OAVda faqat axborot almashinuvi uchun doimo til xizmat qilmaydi. Axborotni noverbal vositalar, tasvirlar orqali ham olish mumkin.

Axborot, ya'ni matn yaratishda har bir mamlakatning turli madaniy an'analari, yashash tarzi, milliy mentalitetining o'z o'rni bor. Milliy mentalitet muammosiga keyingi paytlar tobora ko'proq ahamiyat berilayotgani va bu yo'nalishda ko'plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilayotgani bejiz emas.

Axborot tarqatish muayyan darajada jamiyat ongiga ta'sir etish va olamning umumiy tasvirini tuzish orqali atrofdagi dunyo haqida manzara va baho hosil qiladi.

Bunday vazifani amalga oshirishda OAVning quyidagi xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi:

- ommaviy auditoriyaga qaratilganligi;
- hamma uchun mo'ljallanganligi
- tezkorligi.

Kerakli axborotni yetkazishda, albatta, adabiy tilning ahamiyati kattadir. Agar til tizimini muayyan til qonuniyatlariga mos imkoniyatlar sifatida qarasaq, ushbu tilda so'zlashuvchilar aynan shulardan foydalanadi. M.V. Panovning ta'kidlashicha, bizning davrimizda, me'yor bu tadqiq emas, ifoda uchun til vositalari tanlovidir. Me'yorning muhim belgilaridan biri uning ongli boshqarilishi va unga sayqal berilishidir. Me'yor tildagi so'zlarni kontekst uchun eng mosini tanlashga yordam beradi.

OAVda verbal tilning ta'sir etish kuchi cheksizligi va til tafakkurining umumlashtiruvchanlik faoliyatida zarur qurol bo'lib xizmat qilishi, bu esa, o'z navbatida, axborot almashuvi natijasida dunyoni ko'rish, anglash, axborotni qabul qilishda uning ahamiyati beqiyos ekanligidan dalolat beradi. Hozir OAV tili masalalarini tadqiq etishda tilni o'rganishda paydo bo'layotgan yangi lingvistik prinsiplar uning bir ko'rinishi bo'lishi OAV tilini o'rganish masalalarida dolzarflik kasb etadi.

#### Adabiyotlar:

1. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. –Toshkent: Navruz, 2000.
2. Baxtin M. M. Estetika slovestvnogo tvorchestva. – M., 1984.
3. Humboldt W. v. Uber die Verschiedenheit des menschlichen Sprachbaues und ihrem EinfluB auf die geistige Entwicklung des Menschengeschlechts // Gesammelte Schriften, hrsg. Albert Leitzmann. Bd. VII. Berlin, Leipzig. 1907.
4. Vittgenshteyn L. Filosofskiye issledovaniya // Filosofskiye raboty. Chast I. – M., 1994.



5. Volodina M. N. Kognitivno-informacionnaya priroda termina i terminologicheskaya nominatsiya: Dis. ... d-ra filol. nauk: – M.: 2005.

6. Gumboldt V. fon. Izbrannyye trudy po yazykoznaniyu. – M., 1984.

#### РЕЗЮМЕ

Axborot bu – kommunikatsiyaning mazmuniy aspektidir. U kommunikasion jarayonga qo‘shilib ketgan holda, axborotni saqlash, yig‘ish, tarqatish va saralash vositalari va tarmoqlari bilan uzluksiz bog‘langan bo‘lib, ularga doimiy ta‘sir o‘tkazadi va o‘zi ham ularning ta‘sirida bo‘ladi. Til muhim kommunikatsiya va fikrni ifodalash vositasi hisoblanadi, u odam tomonidan muntazam, faol tarzda dunyoni anglash va bilishni tajribaga aylantirish quroli bo‘lib xizmat qiladi. Buning natijasida dunyoni axborot va til orqali ko‘ra olish imkoni yuzaga keladi.

#### РЕЗЮМЕ

Одним из компонентов содержания коммуникации является информация. Будучи плавно подключенной к сетям и методам распространения, сбора, хранения и сортировки информации, которые как влияют, так и находятся под их влиянием, она включается в процесс коммуникации. Язык является жизненно важным инструментом мышления и коммуникации; его можно использовать как оружие, чтобы сознательно и методично превратить свое понимание и восприятие внешнего мира в опыт. Результатом этого является способность воспринимать мир с помощью языка и информации.

#### SUMMARY

One component of communication’s content is information. By being fluidly connected to the networks and methods of information dissemination, collecting, storage, and sorting which both influence and are influenced by them it is included into the communication process. Language is a vital tool for thought and communication; it may be used as a weapon to deliberately and methodically turn one’s understanding and perception of the outside world into experience. The ability to perceive the world through language and information is the outcome of this.